



**Furqat Sodiqov,**  
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti  
kichik ilmiy xodimi,  
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

## XOTIN-QIZLARGA NISBATAN TAZYIQ VA ZO'RAVONLIK: UNING OQIBATLARI VA OLDINI OLISH MEXANIZMLARI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning dunyo miqyosidagi holati, ushbu muammoning oqibatlari Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlari hamda boshqa manbalar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurashishning “RESPECT” strategiyasi hamda Amerika Qo'shma Shtatlaridagi ayrim mexanizmlar yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** xotin-qizlar, zo'ravonlik, “RESPECT” strategiyasi, gender, ayollar, BMT, kurashish, tenglik, huquq.

**Аннотация.** В данной статье анализируется глобальная ситуация насилия и угнетения в отношении женщин. Последствия этой проблемы изучается на основе информации Организации Объединенных Наций, Всемирной организации здравоохранения и других источников. Также освещается стратегия «RESPECT» по борьбе с насилием в отношении женщин и некоторые механизмы борьбы с этой проблемой в Соединенных Штатах Америки.

**Ключевые слова:** женщины, насилие, стратегия “RESPECT”, гендер, женщины, ООН, борьба, равенство, права.

**Annotation.** This article analyzes the global situation of oppression and violence against women. The consequences of this problem are studied on the basis of information of the United Nations, the World Health Organization and other sources. It also highlights the RESPECT strategy to combat the violence against women and some [mechanisms to counter](#) this problem in the United States of America.

**Key words:** women, violence, RESPECT strategy, gender, women, UN, struggle, equality, rights.

**Kirish.** Zamonaviy ko'p qutbli dunyoda jamoatchilik munosabatlari ijtimoiy normalar va global jarayonlar ta'sirida sezilarli o'zgarishlarga duch keldi. Har bir shaxsning ijtimoiy roli, yoshi, oilasi, kasbiy va jinsiy xususiyatlari asosida shakllanadi. Jahonda gender tengligi siyosati keng ommalashayotgan bir vaziyatda dunyoning turli mamlakatlarida keng qo'llaniladigan ayollarga

nisbatan zo'ravonlik muammosi dolzarb bo'lib kelmoqda.

BMT tomonidan 1993-yilda qabul qilingan Ayollarga nisbatan zo'ravonlikka barham berish to'g'risidagi deklaratsiyada “ayollarga nisbatan zo'ravonlik erkaklar va ayollar o'rtasidagi tarixan teng bo'lmagan kuch munosabatlarining namoyon bo'lishi bo'lib, bu ayollarning hukmronligi va

erkaklar tomonidan ayollarga nisbatan kamsitilishiga olib keldi, shuningdek, har tomonlama rivojlanishiga to'sqinlik qiladi", deyiladi<sup>1</sup>.

**Asosiy qism.** Birlashgan Millatlar Tashkiloti xotin-qizlarga jismoniy, jinsiy, ruhiy zarar yoki azob-uqubatlarga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan, ushbu jinsga nisbatan har qanday zo'ravonlik harakatini, jumladan, bunday xatti-harakatlar bilan tahdid qilish, majburlash yoki o'zboshimchalik bilan ozodlikdan mahrum qilish holatlari jamoat yoki shaxsiy hayotda bo'lishidan qat'i nazar, ayollarga nisbatan zo'ravonlik deb ta'riflaydi.

Dunyoning ko'plab mamlakatlarida Xalqaro ayollarga nisbatan zo'ravonlikka barham berish kuni nishonlanadi. Ushbu sana 1999-yilning 17-dekabrida BMT Bosh Assambleyasining qarori bilan ta'sis etilgan<sup>2</sup>. Shu munosabat bilan har yili dunyo bo'ylab 25-noyabrdan 10-dekabrgacha jamoatchilikning faol ishtirokida "16 kun zo'ravonliksiz!" shiori ostidagi tadbirlar o'tkaziladi.

O'zbekistonda ham ayollarni himoya qilish, ularning turli zo'ravonliklar qurboni bo'lmashligi uchun kurashish dolzarb ahamiyatga ega. Joriy yilda qabul qilingan "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonun<sup>3</sup> aynan shu maqsadga xizmat qilmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ayollarga nisbatan zo'ravonlik bo'yicha idoralararo ishchi guruhi tomonidan 2000-yildan 2018-yilgacha bo'lgan davrda 161 mamlakat va hududlarda ayollarga nisbatan zo'ravonlikning tarqalishi ma'lumotlarining 2018-yildagi tahlili shuni ko'rsatadiki, butun dunyo bo'ylab deyarli har uchinchi yoki ayollarning 30 foizi, hayoti davomida o'zining hayotdagi sherigi, eri yoki uchinchi shaxs tomonidan jismoniy yoki jinsiy zo'ravonlikka

uchragan<sup>4</sup>. 15 yoshdan 49 yoshgacha bo'lgan barcha ayollarning to'rtidan biridan ko'prog'i hayotida o'zaro munosabatlarda kamida bir marta (15 yoshdan boshlab) jismoniy yoki jinsiy zo'ravonlikka uchragan. Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik sodir etilganini aniqlash maqsadida dunyo miqyosida o'tkazilgan ijtimoiy tadqiqot ma'lumotlariga ko'ra, Tinch okeanining G'arbiy mintaqasida 20 %, Yevropa mintaqasidagi yuqori daromadli mamlakatlarda 22 %, Amerika mintaqasida 25 %, Afrika mintaqasida 33 %, Sharqiy O'rta yer dengizi mintaqasida 31% va Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasida 33 % ni tashkil etadi<sup>5</sup>.

2018-yilda dunyoda 15–49 yoshdagi xotin-qizlarga nisbatan jismoniy yoki jinsiy zo'ravonlikning sodir etilganligi ko'rsatkichlari tahlil qilinsa, demokratik prinsiplar mustahkam va ayollarning huquqiy bilimlari yuqori bo'lgan davlatlarda buning aksi bo'lgan mamlakatlarga nisbatan ko'rsatkichlar ancha ijobiy ekanligini ko'rish mumkin (1-rasm)<sup>6</sup>.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar O'zbekistonni qamrab olmagan. Chunki mazkur ijtimoiy so'rov O'zbekistonda o'tkazilmagan.

#### **Xotin-qizlarga nisbatan jinsiy yoki jismoniy zo'ravonlikning omillari.**

Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonliklar shaxslar, oilalar va jamoalar darajasida, shuningdek, butun jamiyatda mavjud bo'lgan omillar tufayli yuzaga keladi.

Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonliklar uchun xavf omillari quyidagilardan iborat (1-jadval)<sup>7</sup>:

Ayollarga nisbatan zo'ravonlik ildizida gender tengsizligi va bunday zo'ravonlikka yo'l qo'yadigan me'yorlar yotadi.

<sup>1</sup> Декларация об искоренении насилия в отношении женщин. Принята резолюцией 48/104 Генеральной Ассамблеи ООН от 20 декабря 1993 года // [https://www.un.org/ru/documents/decl\\_conv/declarations/violence.shtml](https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/violence.shtml)

<sup>2</sup> O'zbekistonda Xalqaro ayollarga nisbatan zo'ravonlikka barham berish kuni keng nishonlanmoqda // <https://uza.uz/oz/posts/o-zbekistonda-xalqaro-ayollarga-nisbatan-zo-ravonlikka-barha-25-11-2019>


<sup>3</sup> "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 561-son Qonuni, 2019-yil 2-sentabr.

<sup>4</sup> Violence against women (Ayollarga nisbatan zo'ravonlik) // <https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/violence-against-women>

<sup>5</sup> <https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/violence-against-women>

<sup>6</sup> Lynmarie Sardinha, Mathieu Maheu-Giroux, Heidi Stokl, Sarah Rachel Meyer, Claudia Garcia-Moreno. Global, regional and national prevalence estimates of physical or sexual or both intimate partner violence against women in 2018. [www.the-lancet.com](http://www.the-lancet.com). volume 399. February 26, 2022. p.809.

<sup>7</sup> Violence against women (Ayollarga nisbatan zo'ravonlik) // <https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/violence-against-women>



*1-rasm. 2018-yilda 15–49 yoshdagi xotin-qizlarga nisbatan jismoniy yoki jinsiy zo‘ravonlikning sodir etilganligi (dunyo miqyosida).*

### **Xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi kurash “RESPECT” strategiyasi.**

Puxta o‘ylangan baholashlar tizimini ishlab chiqish ayollarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish uchun samarali choralar imkoniyatini ochib beradi. 2019-yilda Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Gender tengligi va ayollar huquqlarini kengaytirish bo‘yicha tashkiloti BMTning boshqa tashkilotlari ko‘magida ayollarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish bo‘yicha siyosiy asos bo‘lgan “RESPECT” strategiyasini e‘lon qildi<sup>8</sup>.

RESPECT so‘zining har bir harfi yettita strategiya (ingliz tilidagi so‘zlarning) birinchi harfidir:

- 1. Relationship skills strengthening** – Munosabat ko‘nikmalarini yaxshilash.
- 2. Empowerment of women** – Ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish.
- 3. Services ensured** – Xizmat ko‘rsatishni ta‘minlash.
- 4. Poverty reduced** – Qashshoqlikni kamaytirish.

**5. Enabling environments created** – Qulay sharoitlar yaratish (maktabda, ishda, jamoat joylarida).

**6. Child and adolescent abuse prevented** – Bolalar va o‘smirlarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish.

**7. Transformed attitudes, beliefs and norms** – Xulq-atvor, e‘tiqod va me‘yorlarning o‘zgarishi<sup>9</sup>.

Ushbu yetti strategiya bir necha chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Bularga:

- zo‘ravonlik qurbonlari uchun psixologik yordam ko‘rsatish va maslahatlar berish;
- ayollarning ijtimoiy va iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish;
- xotin-qizlarni moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash;
- erkaklarning oiladagi muloqot madaniyatini to‘g‘ri shakllantirish va ularga oilaviy munosabatlarni saqlash bo‘yicha maslahat berib borish;
- gender tushunchalari va stereotiplarini o‘zgartirish maqsadida aholi bilan tushuntirish ishlarini olib borish;

<sup>8</sup> Violence against women (Ayollarga nisbatan zo‘ravonlik)  
// <https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/violence-against-women>

<sup>9</sup> Violence against women (Ayollarga nisbatan zo‘ravonlik)  
// <https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/violence-against-women>

|                                                                                                                    |                                                                                                                    |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| ta'lim sifatining pastligi                                                                                         | bolalik davrida zo'ravonlikka duchor bo'lishi                                                                      |
| oilada zo'ravonlikka guvoh bo'lish yoki unga uchrash                                                               | antisosial shaxs buzilishi                                                                                         |
| spirtli ichimliklarni iste'mol qilish                                                                              | erkaklarning zararli odatlari va xatti-harakatlari, jumladan, ko'pxotinlilik va zo'ravonlikni oqlaydigan munosabat |
| erkaklarga imtiyozli yoki yuqori lavozimni, ayollarga esa pastroq lavozimni belgilovchi ijtimoiy normalar          | ayollarning haq to'lanadigan mehnat qilish imkoniyatlari cheklanganligi                                            |
| erkaklarning zararli odatlari va xatti-harakatlari, jumladan, ko'pxotinlilik va zo'ravonlikni oqlaydigan munosabat |                                                                                                                    |

– maktabda xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan, qattiq jazolarni taqiqlovchi maktab dasturlari, gender stereotiplarini yengishga qaratilgan, tenglik va uyg'unlikka asoslangan munosabatlarni o'rnatishga yordam beradigan o'quv dasturlari va materiallarini yaratish;

– ayollar va erkaklar o'rtasidagi gender tengsizlik muammolarini muhokama qilish uchun qo'shma trening dasturlarida ayollar va erkaklarning ishtirokini ta'minlash kabilarni keltirish mumkin.

Shuningdek, ushbu strategiyada muvaffaqiyatli va samarali dasturlar, birinchi navbatda, ayollar xavfsizligiga qaratilgan dasturlar ekanligi, ularning asosiy elementlari gender tengsizligini bartaraf etish

hamda erkaklar va ayollar o'rtasidagi munosabatlar xarakterini o'zgartirishga qaratilgani, xotin-qizlar hayotining boshidan boshlab bir necha dasturlar orqali ularga nisbatan xavf omillarini oldini olishga qaratilgani bilan e'tiborga loyiq.

Zo'ravonlikning psixologik, jinsiy va reproduktiv salomatlik uchun salbiy oqibatlari ayollar hayotining barcha bosqichlariga ta'sir qiladi. Masalan, qizlarning erta ta'lim olishini cheklash nafaqat ularning umumiy ta'lim olish huquqini ro'yobga chiqarishga asosiy to'siq bo'lib qolmay, balki kelajakda oliy ta'lim va mehnat bozoriga kirishni ham cheklaydi. Ayollarga nisbatan zo'ravonlik tenglik, taraqqiyot va tinchlik, xotin-qizlar huquqlariga erishish yo'lidagi to'siqdir.

Barqaror rivojlanish maqsadlarining asosiy tamoyiliga – hech kimni ortda qoldirmasdan – ayollarga nisbatan zoʻravonlikka barham bermasdan erishib boʻlmaydi<sup>10</sup>.

Xotin-qizlarga nisbatan zoʻravonlikning oldini olish va unga qarshi kurashish koʻp tarmoqli yondashuvga asoslanishi lozim boʻlsa-da, bunda sogʻliqni saqlash sohasi muhim oʻrin tutadi. Sogʻliqni saqlash sohasida quyidagilarni amalga oshirish muhim hisoblanadi:

- zoʻravonlik qurbonlariga kompleks xizmat koʻrsatilishini taʼminlash, tibbiyot xodimlarini zoʻravonlikdan omon qolganlar hamda ularning ehtiyojlarini ularga nisbatan tushunish va hamdardlik bilan, ularni ayblamasdan qondirishga oʻqitish;

- zoʻravonlikka uchragan ayollar va bolalarni erta aniqlash, ularni tegishli xizmatlarga yoʻnaltirish va zarur yordam koʻrsatish orqali zoʻravonlik takrorlanishining oldini olish;

- yoshlarga hayotiy koʻnikmalarni oʻrgatish hamda taʼlim dasturlarida teng huquqli gender meʼyorlarini targʻib qilish;

- aholiga asoslangan soʻrovlar yoki ayollarga nisbatan zoʻravonlikni aholiga asoslangan demografik va sogʻliqni saqlash soʻrovlari hamda kuzatuv va sogʻliqni saqlash axborot tizimlariga kiritish orqali yaxshi amaliyotlar va muammoning koʻlamini isbotlash;

- ushbu muammoning oldini olishga qaratilgan samarali amaliyotlar boʻyicha maʼlumotlarni toʻplash, shuningdek, sotsiologik tadqiqotlarni oʻtkazish orqali muammo yechimi boʻyicha tahliliy materiallar tayyorlash<sup>11</sup>.

1979-yilda “Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish toʻgʻrisida”gi Konvensiya qabul qilinganiga qaramay, ayollarga nisbatan zoʻravonlik bugungi kungacha jiddiy muammo boʻlib qolmoqda. 1993-yilda qabul qilingan “Ayollarga nisbatan zoʻravonlikka barham berish toʻgʻrisida”gi deklaratsiya ana shu kurashning davomi boʻlib, ayollarga nisbatan zoʻravonlikka barham berish harakatiga asos

<sup>10</sup> Ayollarga nisbatan zoʻravonlikni darhol toʻxtating! // <https://www.un.org/en/observances/ending-violence-against-women-day/background>

<sup>11</sup> Violence against women (Ayollarga nisbatan zoʻravonlik) // <https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/violence-against-women>

soladi. 2017-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti xotin-qizlarga nisbatan zoʻravonlikning barcha shakllariga barham berish maqsadida yangi uzoq muddatli global tashabbus – “Spotlight”(Umid nuri) ni boshladi. Ushbu tashabbus Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish dasturi kun tartibiga koʻra, xotin-qizlarga nisbatan zoʻravonlikning barcha shakllarini toʻxtatishga qaratilgan<sup>12</sup>.

Biroq global miqyosda xotin-qizlarga nisbatan zoʻravonlikning oldini olish uchun hali qilinishi kerak boʻlgan koʻplab masala mavjud. Bugungi kunga kelib, dunyo davlatlarining uchdan ikki qismida oiladagi zoʻravonlik qonunan taqiqlangan. Shu bilan birga, jahondagi 49 ta davlat hali ham ayollarni oiladagi zoʻravonlikdan himoya qiluvchi qonunlarni qabul qilmagan<sup>13</sup>, 18 ta davlatda erlar qonuniy asosda xotinining ishlashiga toʻsqinlik qilishi mumkin, 39 mamlakatda esa qiz va oʻgʻil farzandlar teng meros huquqiga ega emaslar<sup>14</sup>.

Dunyo mamlakatlarida xotin-qizlarga nisbatan zoʻravonlikning oldini olishning turli strategiyalari va usullari ishlab chiqilgan. **Amerika Qoʻshma Shtatlarida** oilaviy tazyiq va zoʻravonliklar bilan ishlaydigan alohida sudlar mavjud boʻlib, ular uchun asosiy koʻrsatmalarni oʻz ichiga olgan “Yashil kitob” ishlab chiqilgan. Mazkur kitobda aliment majburiyatlari, bolalarni himoya qilish va oiladagi zoʻravonlik masalalari boʻyicha ustuvor koʻrsatmalar berilgan. “Yashil kitob” oiladagi zoʻravonlik yoʻnalishida ishlaydigan sudyalari va boshqa soha yetakchi ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan boʻlib, sudning rasmiy veb-saytida yangiliklar, voqealar va boshqa muhim havolalar bilan tanishish mumkin<sup>15</sup>.

<sup>12</sup> Ayollarga nisbatan zoʻravonlikni darhol toʻxtating! // <https://www.un.org/en/observances/ending-violence-against-women-day/background>

<sup>13</sup> Ayollarga nisbatan zoʻravonlikni darhol toʻxtating! // <https://www.un.org/en/observances/ending-violence-against-women-day/background>

<sup>14</sup> Gender tengligiga erishish va barcha xotin-qizlarning imkoniyatlarini kengaytirish. // <https://www.un.org/sustainabledevelopment/gender-equality/>

<sup>15</sup> Селезнева Н. Образование и право. – № 9, 2020. – С. 442. / Elektron resurs: <https://cyberleninka.ru/article/n/protivodeystvie-gendernomu-nasiliyu-rossiyskiy-i-zarubezhnyy-opyt>

AQSHda oiladagi zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarni himoya qilish mexanizmi bir necha bosqichlardan iborat:

A) Oilaviy zo‘ravonlikka duchor bo‘lgan xotin-qizlarning huquqiy bilimlarini oshirish hamda zo‘ravonlikka qarshi kurashish uchun ushbu sohaga bog‘liq bo‘lgan **qo‘llanma va tarqatma materiallarni tarqatish**.

B) **Vaqtinchalik himoya orderini berish**. Himoya orderi – zo‘ravonlik va ta‘qib qilishni taqiqlash, jabrlanuvchi va uning oilasini zo‘ravonlikdan himoya qilish uchun yozma sud qarori. Himoya orderi iltimosnoma asosida bepul va advokatsiz olinishi mumkin.

Vaqtinchalik himoya orderi sud qarori bo‘lib, barcha taraflar uchun majburiydir. Orderning nusxasi zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlarning ishxonasiga, bolalar bog‘chasiga yoki bu haqda bilishi kerak bo‘lgan har qanday kishiga ko‘rsatiladi.

C) **Doimiy himoya orderini tayinlash**. Uni olish uchun jabrlanuvchi birinchi order muddati tugagunga qadar sudga murojaat qilishi kerak. 14 kun ichida navbatdagi sud majlisi tayinlanadi, unda sud da‘vogarning asosli sabablarini eshitgandan so‘ng, buyruq muddatini bir yilga uzaytirishi mumkin.

Sudya doimiy himoya farmoyishini chiqargach va sudlanuvchiga bildirishnoma olganidan so‘ng, himoya orderining biron-bir qismini buzish qonunga ziddir. Agar huquqbuzar tartibni buzsa, jabrlanuvchi qanchalik kichik bo‘lsa ham, politsiya yoki sherifni chaqirishi kerak.

D) **Jabrlanuvchi bilan aloqalarni cheklash**.

Jinoyat sodir etgan shaxs qamoqdan ozod qilingan taqdirda (agar jinoyatchi ilgari himoya orderi tartibini buzib hibsga olingan bo‘lsa), unga jabrlanuvchi bilan har qanday muloqot va aloqalarni cheklash to‘g‘risida buyruq chiqariladi. Ushbu cheklov jinoyatchidan jabrlanuvchi bilan har qanday aloqadan voz kechishni, shuningdek, jabrlanuvchining uning uyidan, ish joyidan yoki maktabidan uzoqroq turishini talab qiladi. Shu bilan birga, jabrlanuvchi zo‘ravonlikni amalga oshirgan shaxs bilan yozma ravishda, telefon, pochta, faks, elektron pochta orqali har qanday aloqasini

taqiqlash uchun sudga murojaat qilishi mumkin. Ko‘p hollarda sud zo‘ravonga bolasining shifokori, bog‘cha tarbiyachisi, maktab o‘qituvchilari bilan munosabatga kirishmaslik, farzandining maktab yoki maktabdan tashqari mashg‘ulotlaridan uzoqroq turishni va ular bilan muloqotga kirmaslikni buyuradi.

Agar jinoyatchi aloqa qilmaslik haqidagi buyruq shartlarini buzsa, bu jinoyat hisoblanadi va hech qanday ordersiz hibsga olinishi mumkin. Bunday sharoitda hibsga olinganda, jinoyatchi sudya bilan uchrashmaguncha qamoqxonani tark etishiga ruxsat etilmaydi. Jabrlanuvchi so‘rov berilgan sud majlisining kotibiga yozma ariza bilan murojaat qilib, aloqa qilmaslik to‘g‘risidagi qarorni o‘zgartirishni talab qilishga haqli. So‘rovdan keyin 14 kun ichida sud tinglov o‘tkazadi. Himoya orderining har qanday qoidalarini buzish 1 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish va 5000 dollargacha jarima bilan jazolanadi<sup>16</sup>.

**Rossiya Federatsiyasidagi gender zo‘ravonlik holatini Rosstat<sup>17</sup> statistikasi bilan tavsiflash** mumkin: “Agar biz 16 million tazyiq va zo‘ravonlik qurboni bo‘lganlardan kelib chiqib tahlil qiladigan bo‘lsak, Rossiyada har beshinchi ayol zo‘ravonlikka uchragan, xotin-qizlarning uchdan bir qismidan ko‘prog‘i hayotida og‘zaki zo‘ravonlikka duchor bo‘lgan, har beshinchi ayol jismoniy zo‘ravonlik holatlari bo‘yicha murojaat qilgan. Rossiya Federatsiyasi Ichki ishlar vazirligining ma‘lumotlariga ko‘ra, barcha og‘ir zo‘ravonlik jinoyatlarining qariyb 40 foizi oilalarda sodir etilgan”<sup>18</sup>.

Hozirgi vaqtda Rossiya Federatsiyasida ayollar va bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olishga qaratilgan normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bo‘yicha faol ish olib borilmoqda. Xususan, Rossiya Federatsiyasining 2017–2022-yillarga mo‘ljallangan ayollar manfaatlariga

<sup>16</sup> Oilaviy zo‘ravonlik bo‘yicha Aydaho shtati davlat sudi. / Aydaho shtati davlat sudi veb-sayti. Elektron resurs: <https://isc.idaho.gov/domestic-violence/dvc-home>

<sup>17</sup> Rossiya Federatsiyasi statistika qo‘mitasi.

<sup>18</sup> Селезнева Н. Образование и право. – № 9, 2020. – С. 439 // <https://cyberleninka.ru/article/n/protivodeystvie-gendernomu-nasiliyu-rossiyskiy-i-zarubezhnyy-opyt>

qaratilgan Milliy Harakatlar strategiyasi qabul qilingan<sup>19</sup>.

Taqdim etilgan strategiya ayollarga nisbatan ijtimoiy noqulaylik va zoʻravonlikning oldini olish boʻyicha koʻnikma hamda bilimlarni shakllantirishga qaratilgan boʻlib, profilaktika choralarini ishlab chiqish, aholini xabardor qilish choralarini koʻrish masalalari kun tartibiga qoʻyilgan<sup>20</sup>.

Rossiyalik olimlar tomonidan oʻtkazilgan tadqiqotda oiladagi zoʻravonlik va ayollarning taʼlim darajasi oʻrtasida qiziqarli munosabat aniqlandi. Unga koʻra, xotin-qizlarning hayoti davomida yoki oxirgi 12 oy ichida boshdan kechirgan zoʻravonlik darajasi ularning taʼlim darajasi oshgani sayin kamayib borgan. Oilaviy zoʻravonlik darajasi oliy maʼlumotli ayollar oʻrtasida toʻliq oʻrta maʼlumotga ega boʻlmaganlarga qaraganda ikki karra past natijani koʻrsatgan. Shuningdek, zoʻravonlik va spirtli ichimliklarni isteʼmol qilish oʻrtasida juda aniq bogʻliqlik mavjudligi aniqlangan. Spirtli ichimliklarni haddan ortiq isteʼmol qilgan har 5-erkak yil davomida oʻz xotiniga yoki birga yashayotgan sherigiga nisbatan zoʻravonlik qilgan. Ichmaydigan erkaklarda esa bu holat juda kam uchraydi (2% hollarda)<sup>21</sup>.

“Rossiyada oiladagi zoʻravonlik qurbonlariga kim yordam beradi?” degan savol bilan Yandex qidiruv tizimiga soʻrov berilganda, ushbu tizim xayriya jamgʻarmalariga, shuningdek, advokatlar va psixologlarning shaxsiy tavsiyalariga ishora qiladi. Haqiqatan ham, tazyiq va zoʻravonlikdan jabr koʻrgan xotin-qizlarga koʻmak beradigan markazlar Rossiya Federatsiyasining aksariyat hududlarida ishlaydi, lekin ularning faoliyati, koʻpincha, jamoat va

xayriya xarakteriga ega. Rossiya Federatsiyasining taʼsis subyektlarida faoliyat yurituvchi ayollar uchun inqiroz markazlarida har yili zoʻravonlikka uchragan 60 mingga yaqin ayollar va 10 mingdan ziyod qizlar yordam oladi. Biroq Rossiya Federatsiyasining barcha hududlarida zoʻravonlik qurbonlariga yordam koʻrsatadigan inqiroz markazlari va inqiroz boʻlimlari yaratilmagan<sup>22</sup>. Bundan tashqari Rossiya Federatsiyasi oiladagi zoʻravonlikka qarshi alohida qonun qabul qilmagan kam sonli davlatlardan biri boʻlib qolmoqda.

**Xulosa.** Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib xulosa qilinganda, xotin-qizlar oʻrtasida zoʻravonlikning oldini olish uchun gender tengligini taʼminlovchi qonunchilikni takomillashtirish, profilaktika ishlarini kuchaytirish va zoʻravonlik oqibatlarini bartaraf etish uchun resurslar ajratish hamda ayollar huquqlarini himoya qilish tashkilotlarini qoʻllab-quvvatlash muhim hisoblanadi.

Xotin-qizlarning oliy taʼlim olishlarini ragʻbatlantirish, huquqiy savodxonligini oshirish, kasb-hunarga oʻqitish, maʼnaviy salohiyatini yuksaltirish orqali ularning oʻz huquqlarini bilish va uni himoya qila olish qobiliyatini shakllantirish muhim hisoblanadi.

“RESPECT” strategiyasi va AQSHdagi xotin-qizlarga nisbatan zoʻravonlikni oldini olishga qaratilgan samarali tadbirlarni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

<sup>19</sup> Распоряжение Правительства Российской Федерации № 410 “Об утверждении Национальной стратегии действий Российской Федерации в интересах женщин на 2017—2022 годы” от 8 марта 2017 г. // <http://government.ru/docs/26698/>; <http://static.government.ru/media/files/njlkIvH7WCvOIYRmcueV4jdNihEmTOUe.pdf>

<sup>20</sup> Домашнее насилие в России: «Бьёт — значит любит?» (Rossiyada oilaviy zoʻravonlik: “Ursa — demak yaxshi koʻradi”) // <https://www.planeta-zakona.ru/blog/domashnee-nasilie-byet-znachit-lyubit.html/>

<sup>21</sup> Домашнее насилие в России: «Бьёт — значит любит?» (Rossiyada oilaviy zoʻravonlik: “Ursa — demak yaxshi koʻradi”) // <https://www.planeta-zakona.ru/blog/domashnee-nasilie-byet-znachit-lyubit.html/>

<sup>22</sup> Домашнее насилие в России: «Бьёт — значит любит?» (Rossiyada oilaviy zoʻravonlik: “Ursa — demak yaxshi koʻradi”) // <https://www.planeta-zakona.ru/blog/domashnee-nasilie-byet-znachit-lyubit.html/>

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Декларация об искоренении насилия в отношении женщин. Принятой резолюцией 48/104 Генеральной Ассамблеи ООН от 20 декабря 1993 года // [https://www.un.org/ru/documents/decl\\_conv/declarations/violence.shtml](https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/violence.shtml)
2. O'zbekistonda Xalqaro ayollarga nisbatan zo'ravonlikka barham berish kuni keng nishonlanmoqda // <https://uza.uz/oz/posts/o-zbekistonda-xalqaro-ayollarga-nisbatan-zo-ravonlikka-barha-25-11-2019>
3. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrda qabul qilingan "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi 561-son Qonuni.
4. Violence against women (Ayollarga nisbatan zoravonlik) // <https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/violence-against-women>.
5. Lynmarie Sardinha, Mathieu Maheu-Giroux, Heidi Stokl, Sarah Rachel Meyer, Claudia Garcia-Moreno. Global, regional and national prevalence estimates of physical or sexual or both intimate partner violence against women in 2018. [www.thelancet.com](http://www.thelancet.com). volume 399. February 26, 2022. p.809.
6. Ayollarga nisbatan zo'ravonlikni darhol to'xtating! // <https://www.un.org/en/observances/ending-violence-against-women-day/background>.
7. Gender tengligiga erishish va barcha xotin-qizlarning imkoniyatlarini kengaytirish // <https://www.un.org/sustainabledevelopment/gender-equality/>.
8. Oilaviy zo'ravonlik bo'yicha Aydaho shtati davlat sudi. Aydaho shtati davlat sudi veb-sayti // <https://isc.idaho.gov/domestic-violence/dvc-home>.
9. Распоряжение Правительства Российской Федерации № 410 «Об утверждении Национальной стратегии действий Российской Федерации в интересах женщин на 2017–2022 годы» от 8 марта 2017 г. // <http://government.ru/docs/26698/>; <http://static.government.ru/media/files/njlkIvH7WCvOIYRmcucV4jdNihEmTOUe.pdf>
10. Домашнее насилие в России: «Бьёт – значит любит?» (Rossiyada oilaviy zo'ravonlik: "Ursa – demak yaxshi ko'radi?") // <https://www.planeta-zakona.ru/blog/domashnee-nasilie-byet-znachit-lyubit.html/>